

МАЙ
2022

Тошкент, Ўзбекистон



**ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР:
ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ**

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

ХАЛҚАРО | ИЛМИЙ-АМАЛИЙ | МАСОФАВИЙ | КОНФЕРЕНЦИЯ
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ

**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли технологиялар: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.6631451>

Ушбу тўпламнинг электрон шакли қуйидаги сайтларда

<https://tadqiqot.uz/conf/>

www.conferences.uz

Таҳририят кенгаши

1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор

2.Шахобиддин Саидович Ашуров

Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент

3.Джурарев Рисбой Хайдарович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.

4.Асқаров Ахмадали

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.

5.Ли Ю Ми

(Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PHD

6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович

Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.

7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

8.Насруллаева Нафиса Зафаровна

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

9.Кисилев Дмитрий Анатолевич

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.

10.Сувонова Нигорабону Низамидиновна

Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.

11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич

Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, ф.ф.д.

12. Муслимов Нарзулла Алиханович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

13.Халиков Аъзам Абдусаломович

педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

14.Урарова Марина Батировна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.

15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.

16.Мамадалиев Абдумажид

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

17.Садикова Альбина Венеровна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

18.Авазов Шериммат

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.

19.Мамаражабова Зулфия Нарбаевна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.

20.Адилова Саодат Хусановна

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.

21.Расулов Анвар Баходирович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PHD

22.Абдуазимов Азиз Абдусобирович

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,

23.Рахимова Гулсанам Аширбековна -

Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси

©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: **Shakhram Fayziev**

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улицв Амира Темура пр. 1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr. 1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА

Abdullayeva D.N. PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR SIFATINI OSHIRISHDA ISHLAB CHIQRARISH USTALARINING O'RNI.....	6
Erkinova N.M. MAKTAB O'QUVCHILARIDA IMLOVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH.....	10
Fayzullayeva O.G. O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY ADOLAT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY MEROS NAMUNALARIDAN FOYDALANISH.....	13
Islomova H.Sh. INTERFAOL METODLAR BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA ASOSOY TAMOIYIL SIFATIDA.....	15
Mamaroziqov F.D., Sotvoldiyeva M.B. SPORTCHILARNING MUSOBAQAGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA MUSOBAQA OLDI HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	17
Asqarova M.A. ABDULLA QODIRIYNING „O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA VATANPARVARLIK G'OYASI.....	21
Maxsudova M.L. ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR:FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA SOHASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH OMILLARI.....	24
Некбоев М.Э. АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИШ.....	26
Najmiddinova G.M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR MATEMATIK TASAVURNI SHAKLLANTIRISH.....	28
Nazarova M.B. INNOVATIVE WAYS TO MANAGE TELECOMMUNICATIONS COMBS.....	30
Абдухамидова М.Т. ВЛИЯНИЕ ЭКСПОРТА АВТОМОБИЛЕЙ НА РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	33
Гулрухбону З.Б. ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИКИ.....	36
Бобоева М.Н. "МАТРИЦАЛАР ҲАҚИДА ТУШУНЧА ВА УЛАР УСТИДА АМАЛЛАР" МАВЗУСИНИ МУАММОЛИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ҲАҚИДА.....	38

ФИЛОЛОГИЯ

Utegenova O.P. PARAFRAZALARDA INSONNING NAZARIY BILIMI.....	41
Boboqulova M.M. ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O'QITISHDA MILLIY KINO,SPEKTAKL VA AUDIO MATNLARDAN FOYDALANISH.....	44
Rajapboyeva D. CHET TILLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MASALALARI.....	46
Fatxiddinova I.F. ERKIN VOHIDOV "RUHLAR ISYONI" ASARI XUSUSIDA.....	48
Masharipova A.O. EXPANSION OF THE SYNTACTIC FORM OF THE SENTENCE BY MEANS OF APPPOSITION.....	51
Masharipova A.O. HOMOGENEOUS PARTS AS A KEY ELEMENT TO SYNTACTIC EXPANSION OF THE SENTENCE.....	53
Qulmanova M.A. PRAGMATIC AND SOCIOLINGUISTIC APPROACHES TO HUMOUR IN INTERCULTURAL COMMUNICATION.....	55
Sharif Kh.N. SEMANTIC ORGANIZATION OF ENGLISH FOLK FAIRY TALES.....	57
Qahramonova Sh. KULGI QO'ZG'ATUVCHI AYRIM LEKSIK STILISTIK HODISALAR.....	59
To'xtamisheva M.M. O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH USULLARI.....	61
Turgunova M THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING AUDIO LINGUAL IN THE TEACHING OF SPEAKING.....	63
Turgunova M THE USAGE OF AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING LANGUAGE.....	65
Shoto'rayeva Z. THE EFFECT OF GENDER ON THE PATTERNS OF CLASSROOM INTERACTION.....	67
Begbudieva P.Sh. THE SOCIAL STATUS OF JADID SCHOOLS.....	69
Ismailova D.Sh. ZONIMLARNING O'RGANILISH TARIXIDAN.....	71
Зайтова О.Ю. ТИЛ ТАЪЛИМИДА ОНЛАЙН-ДАРСЛАРНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ.....	74
Хидиралиев Х. СМЫСЛ И ЗНАЧЕНИЕ СЛОВА "ILM" (ЗНАНИЕ), ВСТРЕЧАЮЩЕГОСЯ В ТЕКСТЕ КОРАНА.....	76

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR SIFATINI OSHIRISHDA ISHLAB CHIQRISH USTALARINING O'RNI

Abdullayeva Dilnoza Nurmuhamed qizi

Toshkent Davlat Agrar Universiteti
qoshidagi Bo'ka Agrotexnologiyalar
texnikumio'quv metodik bo'lim boshlig'i
Abdullayevadilnoza0905@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada professional ta'lim muassasalarida sifatli o'quv amaliyotlarini tashkil etishda ishlab chiqarish ta'lim ustalarining o'rni vazifalari hamda kasbiy sifatleri ko'rsatib o'tilgan.*

This article describes the role and professional qualities of masters of industrial education in the organization of quality training practices in vocational education institutions.

Kalit so'zlar: *ta'lim sifati, ishlab chiqarish ta'limi, Kasbiy-pedagogik kompetensiya, Ijtimoiy-shaxsiy kompetensiya, Umummadaniy kompetensiya.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar fonida O'zbekiston iqtisodiyotida sezilarli yuksalish kuzatildi, ko'lam va sifat jihatdan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. SHu bilan birga, xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashni, kasb-hunar ta'lim sohasida yangi tizimni xalqaro andozalarga mos professional ta'lim tizimini talab qildi. Natijada kasb-hunar ta'limi sohasida ham davlat siyosati tubdan o'zgardi.

Prezidentimiz tomonidan sohada tub islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy professional ta'lim tizimini barpo etishning maqsad va ustuvor vazifalari belgilab berildi. Zamonaviy professional ta'lim tizimini barpo etishning mohiyati yangi sifat va formatda inson resurlarini rivojlantirish, yoshlarda ichki va tashqi mehnat bozori talab qilayotgan amaliy kvalifikatsiyalarni shakllantirish, ularning Vatanga muhabbatini, xalqiga sadoqatini yuksaltirishdan iboratdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda shakllantirilishi, jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi ta'lim tizimi oldiga dolzarb masalalaridan biri bo'lgan sifatli mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yadi. Sifatli mutaxassisni tayyorlash esa faqatgina sifatli ta'lim muhitida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim sifati - davlat ta'lim standartlari va davlat talablarida belgilab qo'yilgan natijalarga erishishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyati va ta'lim oluvchilar tayyorgarligining yuqori darajasi. Ta'lim sifati - ijtimoiy kategoriya hisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining

holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi.

Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosan o'quv amaliyoti jarayonida amalga oshiriladi. SHunday ekan o'quv amaliyotini to'g'ri tashkil etmasdan turib ta'lim sifatini ta'minlash hamda mehnat bozorida raqobatlasha oladigan malakali kadrlarni tayyorlash mumkin emas. Ishlab chiqarish ta'limi malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining asosiy tarkibiy qismidir.

Ishlab chiqarish ta'limi kasb hunar ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir. Shuning uchun ham kasbiy tayyorgarlikka ajratilgan umumiy vaqtning 40-45 foizi ishlab chiqarish ta'limiga beriladi. Uning mohiyatiga ko'ra ta'lim tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan muhandis pedagog, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bog'liq va bir birini taqozo qiladigan faoliyatlarida o'z aksini topadi. Bunday faoliyatning natijalari bo'lib, o'quvchilarda tarkib topgan amaliy bilimlar, kasbiy ish harakat usullari (ko'nikma, malaka) hamda shaxsiy fazilatlar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi maqsadi - boshlangich amaliy tajribani egallash yoki keyinchalik kasbiy faoliyatni amalga oshirish ushuncha zarur bo'lgan o'ziga xos kasbiy kompetentsiyalar va umumiy kompetentsiyalarni shakllantirish ushuncha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;

Amaliyotning asosiy vazifasi kelgusida malakali mutahassis bo'lib yetishayotgan o'quvchilarni muayyan kasb sohasida bevosita faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan, kasb sohasidagi mehnat faoliyatini bajarish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar mazmunlarini egallashlarini ta'minlashdan, bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishga o'rgatishdan, zarur kasb ko'nikmasi va malakasini shakllantirishdan iborat.

Professional ta'lim bitiruvchilari kasb jihatdan yetuk malakali mutahassis bo'lib shakllanishida ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisi (ishlab chiqarish ta'limi ustalari) ning kasbiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ular zimmasiga o'quv jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari va kasbiy ta'lim metodikasini shuqur bilish hamda yuqori pedogogik bilimdonlik va mahorat talab etiladi. Ishlab shiqarish ustalari o'quvshilarda sifatli mehnat faoliyatini, yuqori mehnat unumdorligini, mehnatning ilg'or (yangi) usullarini egallashni, texnik madaniyatni, mehnatga ijodiy yondashishni, kasbiy iqtisodiy va ekologik madaniyatni shakllantiradilar.

Professional ta'lim kasb ta'limi ustalariga ziyolilik, yuksak axloqiy fazilatlariga egaligi, o'z fanining chuqur bilishi, kasbiy maxorati, dunyoqarashining kengligi, pedagogik psixologiya asoslari, umumiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi, pedogogika va amaliy kasbiy ta'lim metodikasini chuqur bilishi, o'quvchi yoshlarga muxabbatli bo'lish talablari qo'yiladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining pedogogik faoliyatda shaxsiy uslubga ega ekanligi, pedogogik muloqot darajasi yuqoriligi, zamonaviy ta'lim-tarbiya metodlari va vositalarini chuqur egallaganligi, o'quvchilar bilan maqbul munosabatlar o'rnatishi va uni saqlab turish malakasi, yangilikka o'chligi, doimiy ijodiy faolliigi va xorijiy tilni bilishi, pedogogik jamoada ishlay olish malakasi, pedagogik maxoratini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi pedogogik maxoratini oshirib borishi uchun malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olishi, metodik ishlanmalar tayyorlashi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan foydalanishi, Pedogogik o'qishlar, konferentsiyalar va seminarlarda ishtirok etishi, ochiiq darslarga kirishi va ularni taxlil qilishi lozim.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi bilan o'quvchining hamkorlikdagi faoliyat usullari bo'lib, ular yordamida o'quvchilar tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishiga erishiladi, ularda kasbiy maxorat asoslari shakllantiriladi, mehnatga munosabat, qarash va e'tiqodlar tarbiyalanadi, aqliy va jismoniy kuchlar hamda ijodiy qobiliyatlar rivojlantiriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining kasbiy pedogogik mahorat, shaxsiy va umummadaniy

hususiyatlarining shakllanganlik darajasi uning kompetensiyasi hisoblanadi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kasbiy-pedagogik kompetensiya-mehnat va o'quv jarayonida o'quvchilarni o'z ksbiga qiziqtirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish qobiliyati.

2. Ijtimoiy-shaxsiy kompetensiya-jamoa bilan birgalikda ish yuritish va o'z o'zini baholay olish qobiliyati.

3. Umummadaniy kompetensiya-milliy v umuminsoniy qadriyatlarga ega bo'lish, mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish, oilasiga urf odatlarga hurma, ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lish. Ilm fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta'sirini anglay olishi va o'quvchi yoshlarga tushuntira olishi.

Amaliy kasbiy ta'limni nazorat qilish amaliy kasbiy ta'lim mazmunining tarkibiy qismlariga mos ravishda tizimli, yani amaliyotning har bir turiga qo'yilgan maqsad va erishilgan natijalar tashxisi (joriy, oraliq, yakuniy nazorat) asosida o'quvchilarda yangi ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi, xolis baxolashning amalga oshirilishi va yetarli kasbiy maxorat asoslarining shakllanishi ta'minlanishi zarur. Baxolash o'quvchilarning egallagan bilim ko'nikma va malaka va kompetensiyalarining sifati, xaqqoniyligi ularning o'quv ishlab chiqarish faoliyati natijalari haqida xulosalar chiqarishdir.

O'quvchilarni joriy baxolash o'qituvchi usta tomonidan, oraliq va yakuniy nazorat esa bevosita bo'lim boshliqlari, bosh usta kafedra mudirlari ishtirok etishi lozim. SHundagina sifat nazoratiga erishish mumkin. Oraliq nazorat va yakuniy nazorat topshiriqlari tajribali ustalar kafedra mudiri bilan birgalikda o'zlashtirilgan mavzular yuzasidan tuziladi. O'quvchilarni joriy kuzatish, og'zaki so'rash, suxbat, test savollvri vositasida o'zlashtirish hisobga olinadi va baxolanadi. Oraliq va yakuniy baxolari albatta bir biriga taqqoslani kerak. Natijada

- Baxolash realligi ortadi
- Ustalar faoliyatiga xaqqoniy baxo beriladi
- Ustalarda masuliyat ortadi

Xulosa sifatida professional ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalashda ishlab chiqarish ustalari nafaqat ma'naviy ahloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan bir qatorda pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, kasbiy hususiyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lishi, professional mutahassislarni tayyorlashga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozim.

Ishlab chiqarish ta'lim ustalari namunaviy dasturlarga asoslangan xolda o'quv dasturdagi o'quv va ishlab chiqarish (diplom oldi,) amaliyotlari ishchi o'quv dasturlarini kasb standartlari talablariga muvofiq ishlab chiqish va takomillashtirib borishi;

-kompetentsiyaviy yondashuvga muvofiq amaliyotlarning mazmuniga qo'yiladigan talablar va tashkil etish shakllarini belgilashi;

-mexnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni xisobga olgan xolda o'quvchilarning amaliy mashgulotlari natijalarini baxolash bo'yicha yagona yondashuvlarni ishlab chiqish amaliyot natijalarini baxolash usullari va indikatorlarini amaliyot mavzular bo'yicha qo'llash baxolash mezoni ishlab chiqishda ishtirok etishi;

-pedagogika va amaliy kasbiy ta'lim metodikasini, zamonaviy ta'lim-tarbiya metodlari va vositalarini qo'llashi

-malaka oshirishning turli shakllarida ta'lim olishi, metodik ishlanmalar tayyorlashi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishi va ulardan foydalanishi;

-pedagogik o'qishlar, konferentsiyalar va seminarlarda ishtirok etishi, ochiq darslarga kirishi va ularni taxlil qilishi taminlashi;

-mutaxassis tayyorlashda amaliyot dasturining o'rni belgilangan kasbiy faoliyat turi doirasida amaliyotni tashkil etishning axamiyati va dolzarbligi yoritib borishi muhim

sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhat:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni 2020 yil 23 sentyabr O'RQ 637.
2. Sh. Avazov N. uslimov. Sh. Qosimov "Kasb hunar kollejlari amaliy kasbiy ta'lim metodikasi va texnologiyalari Toshkent 2014 yil.
3. A. R. Xodjaboyev. Sh. U. Qosimov "Amaliy kasbiy ta'limni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi Toshkent 2015 yil.
4. B. Haydarov, U. Eshonqulov, E. Po'latov, X. Raimjonov, A. Isoqov "O'quv amaliyotlari uchun o'quv metodik majmualar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va ishlab chiqarish ta'lim ustasining portfoliyusini ishlab chiqish hamda takomillashtirish. Toshkent 2016 yil.

МАКТАБ О'QUVCHILARIDA IMLOVIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Erkinova Nodira Ma'murjon qizi
Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida imloviy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha ko'nikma va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *imlo, yozuv malakalari, savodxonlikni oshirish, o'qitish uslubiyati, grammatika.*

Boshlang'ich maktabning muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdir. Shubhasiz, hamma fanlar o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga, imlodan savodxonligini oshirish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan birga ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va maktab o'quvchisini shaxs sifatida shakllantirish, uning fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, bilimga qiziqishini, mustaqilligini, mehnatsevarligini, mas'uliyatlilikini, ish uchun javobgarligini, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatini tarbiyalash boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy maqsadidir. Ona tilini muvaffaqiyatli o'qitishning muhim sharti ta'limni o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan, ularning bevosita ko'rganlari, kitoblardan o'qib bilganlari bilan bog'lash hisoblanadi. Ma'lumki, o'qish darsliklaridagi matnlar turli manbalardan olinganligi aniq. Ona tili darsini o'qish bilan bog'lansa, o'quvchilarning o'qish darsida o'qiganlari asosida olgan haqiqiy bilimlaridan foydalanishga imkon yaratiladi. Ona tili faning yaxshi o'zlashtirishda bizga imlo qoidalari yordam beradi.

Imlo so'zi (arab. - to'g'ri yozish) degan ma'noni anglatadi. Imlo, fonetika, leksika, grammatikaga oid eng oddiy ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida bolalarda fikrlash qobiliyatlari, til materialini tahlil qilish, taqqoslash, guruhlashtirish va umumlashtirish, adabiy nutq qobiliyatlari va ko'nikmalari shakllanadi; asosiy til birliklari, so'zni, gapni ishlatish munosabatlari yuzaga keladi. Fonetika, grammatika, imlo boshlang'ich kursi o'rta maktabda o'tiladigan o'zbek tili fanining mazmuni bilan uzviy bog'langan va o'zbek tilining turli jihatlariga taalluqli bo'lgan keng ma'lumotlar doirasini qamraydi. O'quvchilar so'zning fonetik tarkibi, so'zning bo'g'inlarga va ma'noli qismlarga bo'linishi deyarli barcha so'z turkumlari va ularning muhim shakllari, gaplarning eng oddiy turlari, gap bo'laklari va qator imlo qoidalari bilan tanishadilar. Dastur shuningdek, o'quvchilarning so'zning leksik ma'nosi bilan omonimlar, sinonimlar, antonimlar bilan amaliy tanishishlarini nazarda tutadi.

O'zbek tili boshlang'ich kursida "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap" bo'limlari eng muhim bo'limlardan hisoblanadi. Ona tili o'qitish usuliyoti psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Psixolingvistika usuliyotga nutq haqida - nutqni talab qiluvchi, keltirib chiqaruvchi sabablar haqida, fikr bayon qilish darajasi haqida, fikr bayon qilish turlarini belgilovchi omillar haqida, "nutqni qabul qilish signallari" apparati haqida, individual munosabatga va ommaviy aloqaga nutqiy ta'sirning foydasi haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar metodik masalalarni hal qilish uchun, ayniqsa, bog'lanishli nutqni o'stirish usuliyoti uchun juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish usuliyoti didaktika bilan, ya'ni ta'limning umumiy nazariyasi bilan ham bog'lanadi. Usuliyot didaktika belgilab bergan qonuniyatlar, qoida vaprinsiplarga asoslanadi. Didaktikaning prinsiplariga, ya'ni o'rganiladigan materialning ilmiyligi va muvofiqligi, til materialini o'rgatish va mustahkamlashda qiziqish

ko'rsatmalilik onglilik bilim, ko'nikma va malakaning puxtaligi, doimiy takrorlash, o'quvchilar bilish faoliyatining faolligi, mustaqillik o'qitishni hayot bilan, bolalarning qiziqishlari bilan bog'lab olib borishga rioya qilish maktabda o'qitiladigan barcha predmetlardan, shu jumladan, ona tilidan ham o'quv jarayonini tashkil qilishda juda zarurdir. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish usuliyoti pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga asoslanadi. Ona tili usuliyotini umumiy pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoa va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalar hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotchilik jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom, iloji boricha, chiroyli bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tomonidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi. Tarbiyaning shunga o'xshash nazariy va amaliy masalalarini pedagogika ishlab beradi. O'qituvchi pedagogik talablarni amalga oshirsagina, ona tiliga o'rgatishni ta'lim-tarbiya jihatidan foyda keltiradigan qilib uyushtira oladi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, ona tili darsida o'qishdan beriladigan topshiriq o'ylanmasdan, puxta tayyorgarlik ko'rilmay, mavzuga moslamay berilsa, yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi. Ona tilidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun: Birinchidan, ona tili darsida o'qishdan beriladigan topshiriq oldindan tayyorgarlik ko'rib, puxta o'ylab so'ng berilishi; Ikkinchidan, ona tili darsida o'tilgan mavzuni mustahkamlashga imkon berishi hisobga olinishi.

O'qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o'quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi. Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To'g'ri yozuv - maxsus nutq faoliyatidir, yozuv ham murakkab harakat bo'lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to'g'ri tuzish, so'zni uslubiy aniq qo'llashni ham o'z ichiga oladi. Imloviy malaka murakkab malaka bo'lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so'zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatla-shish o'rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog'liq. Imloviy malaka o'z tabiati bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi). Shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi). Bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi. To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi.

Ma'lumki, grammatik bilim tilni ongli egallashni va savodli yozish malakasini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning grammatikadan olgan bilimlari to'g'ri yozuv malakalarini shakllantirish bilan birga olib boriladi. To'g'ri yozuv malakasini rivojlantirishda imloviy tahlil, matnni ko'chirib yozish, ta'limiy diktant va bayondan mashq sifatida foydalanish maqsatga muvofiqdir. Imloviy mashqlarni amalga oshirishda ona tili darsligi sahifalarida berilgan mashqlardan foydalanish bilan birga boshqa materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki o'quvchilar yangi materialga

qiziqish bilan kirishadilar, o'ylashga, fikirlashga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mavlonova R va boshqalar. Pedagogika. Darslik. - Toshkent. 2018.
- 2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild.Toshkent 2000-2005 yillar.
- 3.Mamayusupova S., Doniyorova Sh.Ona tili usuliyoti. O'quv qo'llanma. - Jizzax. 2013.
- 4.Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. - Toshkent. 2003.

O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY ADOLAT TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY MEROS NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

Fayzullayeva Oysara G'ulomovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

3 - sonly KBFCHO'IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy adolat tushunchalarini shakllantirish metodlari to'g'risida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'z: ta'lim, tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi, ijtimoiy adolat, metod.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish uning ijtimoiy jihatdan rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Chunki sog'lom hayotni himoyalash va salomatlikni mustahkamlashga bolaning ijtimoiy maqsadlarga erishuv yo'lidagi sa'yi - harakatlariga yordam berish, uning ichki salohiyat qudratini yuksaltirish bugungi kunda zamonaviy ta'limda ijtimoiy pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda quyidagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1) Umuminsoniy axloq - odob qoidalarini o'zlashtirish ("Nima yaxshi - yu nima yomon" tushunchalarini shakllantirish, "Mumkin va mumkin emas", "Xohlamayman va burchliman" tushunchalarini ajrata olish, vaziyat taqozosiga muvofiq axloq - odob doirasidagi muomala va kayfiyatni tanlay bilish);

2) Katta yoshdagi kishilar, o'zidan kichik yoshdagilar bilan erkin muomala qila olish madaniyatini ular ongida shakllantirish;

3) Fe'l - atvorning ijobiy xususiyatlarini qaror toptirish (keng fe'llik, e'tibor, g'amxo'rlik, o'zaro yordam berish, mehribonlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, inson mehnati mahsullariga ehtiyotkor munosabat, qadriyatlarga hurmat va ijobiy munosabat, huquqiy ong asoslarini shakllantirish, go'zallikka, tabiat ajoyibotlariga, adabiy, badiiy, musiqiy asarlarga, amaliy san'at namunalariga va boshqalarga qiziqishni rivojlantirish);

4) O'zini erkin boshqara bilish (maqsad sari harakat qilish, bola uchun juda qiziqarli bo'lmagan holatlarda ham diqqat - e'tiborni yig'a olish orqali mas'uliyat va irodani chiniqtirish).

5) O'z sa'yi - harakatlarida o'zini erkin his etish, salbiy hatti - harakatlardan o'zini cheklash zarurligini tushunishi, turli hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan sabablarning oqibatini anglashga o'rganish, ya'ni unda me'yor tuyg'usi tarbiyalanmog'i, xavfsizlik maqsadi uchun zarur bo'ladigan ehtiyotkorlik va o'ylab ish qilishni bilmog'i lozim;

6) Mustaqillikni rivojlantirish (o'z shaxsiy faoliyatini tashkil etish uchun turli xil vositalarni: o'yin, tomosha ko'rsatish, tasvirlash, qurish - yasash, o'yin faoliyatining turli turlari jarayonida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal eta bilish);

7) Qobiliyatini, hatti - harakatini o'zi baholay bilishi, katta yoshdagilar, tengdoshlari o'zidan yosh jihatdan kichiklar davrasida o'z o'rnini anglay bilish, boshqa odamni tushunish, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, istaklarini hurmat qilish, uning kayfiyatini, uning oldidagi muammolarini ko'ra bilish, o'z hatti - harakatlarini boshqa odam o'rnida turib baholay olish.

8) Bolaning o'z - o'zini anglashidagi muhim jihat uning o'z qadr - qimmatini his etish, o'ziga bo'lgan munosabatini shakllantirish.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z shaxsiga ortiqcha baho berishi tabiiy va qonuniy holdir, buning uchun o'ziga "shaxsiy himoya", o'z kechinmalariga quloq tutish, o'zining hayajonli holatlarini ("men adolatli ish yuritdim", "men roziman", "menga yaxshi", "men nohaqlikka uchradim", "xafa bo'ldim" va boshqalar) tushunish,

boshqa birovga nisbatan: "Sen haqsan", "Zo'r" kabi so'zlarni ishlatish hisoblanadi. Bolalarga do'st tanlashni, do'stlik, o'rtoqlik munosabatlariga e'tibor bilan qarashlarini o'rgatish lozim, bu borada bola tarbiyasida hamkorlikning ahamiyati katta bo'lib, bunda oiladagi ota - ona tarbiyasi ham alohida o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirishda badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodining ham roli katta. Buning uchun kitob tanlashning alohida ahamiyati bor. Masalan, Asqad Muxtorning "Adolat" nomli she'riy ertagini olaylik. Ma'lumki, bu ertakda mehnatsevar qiz Adolatning ijobiy fazilatlarini va o'z ismiga monand adolatli ekanligini tasvirlangan, yoki "Uch og'ayni botirlar", "Egri va To'g'ri", "Aql va nodonlik" kabi ertaklarda adolat, haqiqat to'g'risidagi g'oyalar yetakchi o'rinni egallaydi. Bu ertaklar emotsionalligi, jonli tilda bayon qilinganligi bilan bolaning e'tiborini tortadi.

Chet el adabiyoti orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda samaraga erishish mumkin. Masalan, bolalar adabiyotida o'chmas iz qoldirgan Oskar Uayld o'z asarlarida ezgulik va yovuzlikning murakkab dunyosini ko'rsatib beradi. Ingliz tilida yaratilgan va keyinchalik dunyoning boshqa tillariga o'girilgan "Yulduzli bola" ertagida ijtimoiy adolat to'g'risidagi ilk tushunchalar sodda va ravon tilda keltiriladi. O'quvchi ertak matniga murojaat qilar ekan, go'yoki o'zi ijtimoiy munosabatlar sub'yektiga aylanib qolgandek tuyuladi: "Bir kuni qish sovug'ida ikki nafar daraxt kesuvchi osmondan yerga yorqin yulduz qulab tushganini ko'rib qoladilar. Chakmon qatida ular yulduzni emas, kichkina go'dakni ko'rdilar. Daraxt kesuvchilardan biri kambag'alligi va ochligiga qaramay bolani oladi va o'z uyiga olib ketadi.

Xullas, bugungi kunda respublikadagi har bir o'quv dargohi o'zining ta'lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, xususan boshlang'ich ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o'quvchi shaxsi, uning bilimiga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijtimoiy adolat tushunchalarini bola ongida shakllantirish asosiy muammo bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur 23.08.2019 yildagi nutqi.

2.M. E. Jumayev, Z. G'. Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Darslik. Toshkent 2005.

INTERFAOL METODLAR BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA ASOSOY TAMOYIL SIFATIDA

Islomova Hulkar Shukrullayevna

Navoiy viloyati Navoiy shahar 16 - AFCHO'IM
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'z:** interfaol, metod, boshlang'ich, sinf, o'qitish, o'qituvchi, o'quvchi.*

Har qanday davlat kelajagi yoshlarning olayotgan bilim salohiyatiga bog'liqligi albatta sir emas. Bu esa umumiy o'rta ta'limda berilayotgan ta'lim - tarbiyaning sifat darajasini yuqori saviyaga chiqarishni zamon talabiga aylantirmoqda. So'nggi yillarda ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilayotgani, hukumatimiz tomonidan ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilayotgani, ushbu sohadagi vazifalar bajarilishi naqadar zarur ekanligini Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o'z nutqlarida doimiy takidlab kelmoqdalar. Maktab ta'limini rivojlanishi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ularning boshlang'ich sinflarda olgan ko'nikmalarining uzviy davomi hisoblanadi. Demak, kelajakning tamal toshi boshlang'ich sinflardan qo'yib boriladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi, diqqatini jamlash vaqt davomiyligini hisobga olgan holda ularni to'laqonli dars jarayoniga jalb qilish bir muncha murakkab jarayondir. Albatta o'qituvchi dars tashkil etishda har bir darsdan turli ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarni ko'zlaydi. Har bir alohida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlab, uning yordamida o'qitilayotgan mavzuning mazmunini o'quvchilarga ochib beradi. Bu holda birinchi holda yangi tushunchalar bilan o'quvchilarni tanishtirish bo'lsa, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchani kengaytirish va chuqurlashtirish, uchinchisida, biror malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, to'rtinchisida, bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va hokazolar bajariladi. Har bir darsda yuqorida aytilganlarning bir nechtasi yoritilishi mumkin. O'tilganlarni takrorlash oldin o'tilgan darslarni yangi tizimga solish, shu bilan bilimlarni tekshirishni o'z ichiga oladi.

Yangi materialni bayon qilish har doim mashqlar bajarish bilan davom ettiriladi. Bir necha yillar davomida maktablar tajribasi darsning ma'lum tizimini yaratdiki, ko'pchilik o'qituvchilar bu tizimga rioya qilib, ma'lum bir samarali natijalarga erishmoqda. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o'tgan mavzu takrorlanadi, so'ngra o'tgan mavzu yuzasidan savol - javob o'tkaziladi. Shundan keyin yangi material bayon etiladi va uni mustahkamlash uchun o'quvchilarga misol va masalalar yechdiriladi yoki nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa va unga ko'rsatmalar beriladi. Ammo, doimiy bir xillik o'quvchilarda fanga, darsga bo'lgan qiziqishning so'nishiga, dars jarayoniga befarq bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Odatda boshlang'ich sinflarda darslar quyidagi turlarda tashkil etiladi:

- O'quvchilarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish darslari;

- Turli xil mashqlar yordamida yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni mustahkamlash darslari;

- O'tilganlarni takrorlash, umumlashtirish darslari;

Odatda o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi: og'zaki, ko'rsatmali, amaliy metodlar. Og'zaki so'zlab berish usuli o'quvchilarda zerikishga, e'tiborsizlikka, so'zlarni eslab qola olmaslikka va passiv o'quvchiga aylanishiga sabab bo'ladi. Ko'rsatmali metoddan foydalanganda turli xil rasmlar, tarqatmalar

bir necha darslar davomida o'quvchilarni jalb qilsada, doimiy takrorlanish ularni jalb qila olmay qoladi. Amaliy metodlarda esa boshlang'ich sinflarda o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llash bir muncha qiyin bo'lib, ularning yosh xususiyatlari bunga to'la javob bera olmaydi. Natijada yana passiv o'quvchiga aylanib boradi. Shu sabab faol o'qituvchi va faol o'quvchi tizimiga ta'lim tizimida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda o'qituvchi dars jarayonini turli xil qiziqarli interfaol metodlar bilan o'yin yoki musobaqa tarzida olib boradi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi, ya'ni o'quvchi shaxsi bo'lgan metodlar tushuniladi. Boshlang'ich sinflarda umumta'lim fanlarini yanada qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarning dunyoqarashini, shaxsiy fikrlashini shakllantirish maqsadida interfaol metodlarni qo'llash yaxshi samara beradi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida keng qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi metodlarni keltirishimiz mumkin:

Keys - stadi (yoki O'quv keyslari), Blits - so'rov, Modellashtirish, Ijodiy ish, Muammoli ta'lim va boshqalar. Bundan tashqari "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig - zag", "Zinama - zina", "Muzyorar" singari interfaol ta'lim strategiyalaridan ham foydalanish ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar bilan birgalikda boshlang'ich sinf darslarida hamda umumiy ta'lim tizimida interfaol grafik organayzerlardan ham foydalanishni tadbqiq etish maqsadga muvofiq. Bunday grafik organayzerlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish uchun eng qulay bo'lganlari - "Baliq skeleti", "BBB", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster" kabilardir.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar yoki interfaol metodlar bilan ishlash ham o'zaro bir - biriga tegishli bo'lsada, ularning barchasi o'quvchilarda ta'limiy - tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadlarini mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Sh. M. Mirziyoyev. Maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur 23.08.2019 yildagi nutqi.

2.M. E. Jumayev, Z. G'. Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Darslik. Toshkent 2005.

3.ziyonet.uz.

SPORTCHILARNING MUSOBAQAQA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI VA MUSOBAQA OLDI HOLATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Mamaroziqov Foziljon Davronboyevich

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali o'qituvchisi

Sotvoldiyeva Mohiraxona Baxromjon qizi

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligi va musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi omillar batafsil yoritilgan. Xususan, maqolada sportchining hissiy-irodaviy sohasi, emotsional baraqarorligi, musobaqa oldi hissiy jarayonlar va o'zgaruvchan individual xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: Musobaqa, psixologik tayyorgarlik, omil, iroda, emotsiya, xarakter, emotsional-tanglik, muhit, sportchi, harakat, ko'nikma, idrok qilish.

Respublikamizda sportning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat berilayotganligi hamda buning har tomonlama mukammal qonuniy va tashkiliy asoslari yaratilganligi tufayli sport talaba yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantiruvchi, ularni jismoniy hamda ma'nan barkamol etib tayyorlash borasida asosiy omilga aylanib borayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, yangi ta'lim modeli joriy qilingandan keyin, o'quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga uzluksiz jalb qila oladigan, umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb hunar kollejlari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarining uzluksiz "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada" ommoviy sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish. Xuddi shuningdek, Respublikamiz yoshlarining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya va sportga jalb etish orqali, Respublika, Osiyo, Jahon va Olimpiada chempionlarini tayyorlash hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlash turli illatlarning oldini olish va jismonan sog'lom millatni shakllantirish maqsadida uch bo'g'inli yagona sport tizimi negizida ommoviy sport harakatining milliy modeli ilmiy asosda tuzildi. Har bir xalq, har bir millat eng avvalo farzandlarini sog'lom qilib tarbiyalash, ularning jismoniy yetuk bo'lishi to'g'risida qayg'uradi. Shuning uchun ham bizning asosiy maqsadimiz "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada-2004" sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlashdan iboratdir. Sport musobaqalarida yaxshi natijalarga erishish uchun sportchi avvalo musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Tayyorgarliklardan asosiysi musobaqa oldi jarayonidagi ruhiy holatidir. Chunki, musobaqa oldi holat sportchining natijasi qanday bo'lishini belgilovchi psixologik holat sanaladi. Sport to'g'risidagi ilmiy, siyosiy adabiyotlarni tahlil qilish va tajribali murabbiylarning ish uslublarini kuzatish hamda sportchilarning musobaqadan oldingi, musobaqa jarayoni va sport musobaqalaridan keyingi psixologik holatini quyidagicha qismlarga ajratib o'rganilgan (to'p bilan bog'liq musobaqalarda).

1.Sportchi musobaqadan oldin ichki his-to'yg'ularini qattiq nazorat qilgan holda diqqatini tashqarida bo'layotgan xodisaga yo'naltirishiva fazoni idrok qilishi. 2.Sport jismoniy mashg'uloti jarayonida kuchli markazlashgan diqqat bilan to'pni nishonga urish holatini o'rganish orientovka refleksini shakllantirish.

3.Sport mashg'uloti jarayonida o'yinchi to'pni jamoadagi o'z jamoadoshiga to'g'ri uzatish bilan bir vaqtning o'zida raqiblarning o'yin joylarini almashtirib turgan harakatlarini diqqat bilan kuzatib borishi, ularnig harakatika baho berish. 4.Sport musobaqasi jarayonida sportchi kuchli markazlashgan diqqat bilan to'pni nishonga urish holatini o'rganish. Sportchining musobaqa paytida juda nozik diqqat xususiyatlari ham murakkablashib ketadi.

Masalan, golor 11 bet o'yinini endi o'rganayotgan o'yinchida birinchi navbatda katta hajmdagi tashqi markazlashgan diqqatning yaxshi rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki bu ko'rish turi, o'yinchidan bir vaqtning o'zida to'pni tushiradigan oysimon chuqurchaning uzoq va yaqinligini, shamolning yo'nalishini, qarshiligini, havoning zichligini, sportchi o'zining jismoniy kuchini inobatga olishni talab etadi. Sportchining musobaqa oldi hayajonlanishini o'rgangan psixolog-olim A.S.Puni uning uch xil holatini aniqlab beradi.

- 1)sport oldidagi jonsaraklik (talvasa) holati,
- 2)sport oldidagi loqaydlik holati,
- 3)jangovor tayyorgarlik holati.

Xuddi shuningdek, o'quvchilarning jismoniy tarbiyaga bo'lgan munosabati predmet va dars sifatlarida har xildir. Yil davomida ko'pchilik o'quvchilarda jismoniy tarbiyaga predmet sifatida bo'lgan munosabatlari yuqori darajada, dars sifatida esa kichik sinf o'quvchilarning yuqori sinflarga borgan sari qiziqish kamayib boradi degan tushunchasi beradi. Y.Masharipov "O'quvchilarni jismoniy va axloqiy tarbiyalashda sportning ahamiyati" nomli maqolasida o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, har bir o'quvchining jismoniy rivojlanishi, ijtimoiy muhit, sport faoliyati va musobaqalari ta'siri bilan ta'lim va tarbiya jarayonlarida o'zgarib boradi degan tushunchani beradi. Sportchining musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud. Ular jumlasiga, ijtimoiy, psixologik, fiziologik, siyosiy va iqtisodiy omillar kiradi. Ijtimoiy omillarga turmushdagi ijtimoiy muhitidagi ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Muhit bu - bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (geografik, ekologik) ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat) oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Muhitdagi bir qator omillar sportchi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik omillarga sportchining psixik jarayonlaridagi barcha bilishga oid tomonlarini kiritish mumkin. Siyosiy omilga davlat tomonidan yaratilgan sharoitni qandayligida bo'lsa, iqtisodiy omil esa musobaqa oldi holatidagi va ungacha bo'lgan iqtisodiy ta'minoti nazarda tutiladi. Sportchini musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy ta'sir etishida psixologik tayyorgarlikning ahamiyati katta. Sportchini hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash hayotning o'zi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, ko'p bosqichli jarayon bo'lib, turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Sport amaliyotida bo'lajak aniq musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko'rgan sportchilarning ko'pincha g'alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassisleri va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ulardan sportchining musobaqaga ruhan tayyorlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilishlari talab qilinadi. Sport turlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

- 1)sportchilarga raqibi va bo'lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma'lumotlar berib borish;
- 2)sport mashg'ulotlari va musobaqalar haqida olingan ma'lumotlarni tekshirib ko'rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o'zgarishlarning alohida sportchilar yoki jamoaga g'alaba keltirish imkoniyatlarini o'rganish;
- 3)sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko'zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko'rsatmalar berish;
- 4)sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g'alabaga erishishning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish;
- 5)sportchining bo'lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, aqliy sifatlarini o'stirishga e'tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini

takomillashtirish;

6) sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to'siqlar vujudga keltirish, ularda bu to'siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko'nikmalar hosil qilish uchun qo'shimcha mashg'ulotlar uyushtirish;

7) sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo'ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o'rgatish;

8) sportchini musobaqa boshlanishida ruhiy ko'tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash.

Ijtimoiy-psixologik, biologik-fiziologik omillarni qanday tarzda sportchiga ta'sir etishi yuqorida keltirilgan psixologik tayyorgarlikni qanday kechishini asosiy ta'minlovchi aspektlari sanaladi. Sport musobaqalarida hissiyotning roli ko'p jihatdan sportchining ustun bilish tomoni sanaladi. Sportchining musobaqa oldi holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu emotsional tanglikni yuzaga keltiruvchi omillar hisoblanadi. Sportchini asosiy harakatlardan chalg'ituvchi kuchli salbiy his - tuyg'ular bilan bog'liq fikrlardir. Bu fikrlar sportchi ongida yetakchi bo'lib ular asosiy harakatlarni buzilishiga olib keladi. Sportchi musobaqalar davomida quyidagilarni o'z boshidan kechiradi:

1. O'z raqibining darajasi yuqoriligidan qo'rqish.
2. Hakamlarni noto'g'ri harakatlar to'g'risiga fikrlar.
3. Yutqazib qo'yishdan qo'rqish.
4. Tomoshobinlarning munosabati bilan bog'liq fikrlar.

Ruhiy to'siqlarning mexinizmini bosh miya katta yarim sharlari qobig'ida kuchli salbiy hissiyotlarning paydo bo'lishi tashkil etadi. Ruhiiy to'siqlarni yengish uchun sportchi qilish zarur bo'lgan holat nimadan iborat. Turli xil shart-sharoitlar va holatlarda musobaqa kurashi olib borish tajribasiga ega bo'lish musobaqa davrida e'tiborni chalg'ituvchi fikrlarni ongli ravishda yenga olish, e'tiborni faqatgina asosiy harakatlarni bajarishga qaratish. Barcha sportchilar bu to'siqlarga duch keladilar. Stress holatlarini vujudga keltiruvchi omillar. Olimlar emotsional tig'izlik-keskinlikni keltirib chiqaruvchi 10 ta muhim omilni ko'rsatib berishadiki, bu sportchida ruhiy tanglikni vujudga keltiradi:

1. Startdagi muvaffaqiyatsizlik.
2. Mashqlar va avvalgi musobaqalarda ko'rsatilgan past natijalar.
3. Trener bilan komandadagi o'rtoqlari yoki oiladagi nizolar.
4. Jismoniy jihatdan o'zini yomon his qilish.
5. Hakamlarning noxolisligi (g'irromligi).
6. Stratning kechiktirilishi.
7. Musobaqa vaqtidagi tanbehlar.
8. Ortiqcha hayajonlanish.
9. Musobaqa oldidan yoki bir necha kun yaxshi uxlamaslik.
10. Musobaqa o'tkaziladigan joyning yomon jihozlanganligi.

Hatto, musobaqadan oldin emotsional hayajonlanish dinamikasi ham natijalar qanday bo'lishini belgilovchi omil sanaladi. Psixologiyada, sport psixologiyasida, sport meditsinasida, sport pedagogikasi nazariyasi va amaliyotida A.T.Puni, O.A.Chernikovalar aniqlagan start oldidan emotsional hayajonlanishning uchta turi umumiy qabul qilingan: jangovar tayyorlik, start oldidan sarosimaga tushish va start payti apatiyasi, keyinchalik ular boshqa mualliflar tomonidan ko'p marta tasvirlab berilgan va tasdiqlangan. Agar sportchi musobaqalarga yetarli tayyorgarlik ko'rmaganligi ularni ongida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan; gimnastikachi qaysidir kombinatsiyani to'g'ri bajarish ustida shug'ullanmoqda. U razmenka paytida bir qator noaniq harakatlarga yo'l qo'yadi. Natijada sportchini asab faoliyatida ikki dinamik steriotip paydo bo'ladi: a) harakatni texnik jihatdan to'g'ri bajarish b) texnik xatolarni ko'pligi Bu ikki qarama - qarshilik sportchi

xotirasida birgalikda kechadi. Musobaqa davrida sportchi u yoki bu qiyin xolatlarga tushganda, u avtomatik ravishdayengil stereotipdan foydalanadi vaharakatlarni texnik xolatlar bilan bajaradi. Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki har bir mashq to`g`ri, texnik qoidalarga amal qilgan holda bajarilishi kerak. Musobaqalar va o`quv yig`inlarini rejalashtirishni ham albatta tashkiliy ish deb hisoblash kerak. Bu har qanday sport ishida eng mas`uliyatli jarayondir. Musobaqalarni shunday rejalashtirish kerakki, ular sport mashg`ulotlari o`tkaziladigan muddatlarga albatta mos tushishi, o`z amaliyotiga qarab tadrijiy ravishda o`tkazilsin, shuningdek, eng yirik musobaqalarning qanday sharoitda (iqlim, joyning dengiz sathidan qancha balandligi, vaqt mintaqasi va boshqa) o`tkazilishi ham hisobga olinishi kerak. Sportchilarni musobaqaga ruhan tayyorlashda ularning musobaqaga ishtirok etish motivlari, ehtiyojlari va maqsadini aniqlash juda muhim. Chunki, motivlar, ehtiyojlar va konkret maqsadlar sportchi ruhiyatiga ta`sir qiluvchi asosiy omildir. Bu omillar sportchining keying faoliyatida muhim aspektlar hisoblanadi. Shunday qilib sportchining musobaqa oldi holatiga ijtimoiy-psixologik, biologik-fiziologik hamda emotsional-irodaviy sohalarga doir omillar ta`sir ko`rsatadi va musobaqa natijasi qanday bo`lishini ta`minlovchi, belgilovchi asosiy psixologik kategoriyalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

- 1.X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumaev. Sport psixologiyasi. O`quv qo`llanma Durdon n. Buxoro 2014y.216-220 bet
- 2.Mashari pov.Y.Sport psixologiyasi.O`zbekiston faylasuflari milliy jamoati n Toshkent 2010.113-115 bet
- 3.Shabbozova.D.R. Sport psixologiyasi. Ma`ruza matni. Termiz 2008y 33-36 bet
- 4.www.kitobxon.com 5. www.pedagog.uz 6. www.bilim.uz

ABDULLA QODIRIYNING „O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA VATANPARVARLIK G'OYASI

Mashhura Akmal qizi Asgarova

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada „O'tkan kunlar" romanidagi Yusufbek hoji va Otabek obrazlarida mujassamlashgan vatanparvarlik g'oyasi hamda noahil „xon zamoni"dagi xalqimizning o'z tomonlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlari: Turkiston mustaqil muxtoriyati, millatning erki, yurtning istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi, hur fiktli ziyolilar, idora ishlari, Shamay, dasturulamal, xon o'rdasi, qipchoq nizolari, ig'vogar boshliqlar.

Abdulla Qodiriy o'zining betakror, hayotiy janrlarga ega asarlari bilan xalqimiz madaniyati, adabiyoti tarixida chuqur iz qoldirgan. Ko'p asrlik milliy adabiyotimiz rivoji uchun ulkan burilishlar yasagan, o'zbek romanchiligiga asos solgan adibimizning "O'tkan kunlar" romani zamonaviy jahon adabiyotining nodir namunalari bilan bir qatorda turadi. Roman faqatgina tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'libgina qolmay juda ham ta'sirli yozilgani barchamizga ma'lum, albatta. "O'tkan kunlar" yaratilgan davr o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi hayot-mamot ahamiyatiga molik masala edi. Ayniqsa, oktabr va'dalaridan ilhomlanib, Qo'qonda tashkil topgan birinchi Turkiston mustaqil muxtoriyatining majaqlab tashlanishi ko'p hur fiktli ziyolilar qatori Qodiriyning qattiq larzaga solgan bo'lishi tabiiy. Xuddi shu fojeali hodisa "O'tkan kunlar"ni yozilishiga turtki bergan bo'lsa ajab emas.

"O'tkan kunlar" romanining ma'no-mundarija doirasi aslida keng. Unda xilma-xil ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida eng muhim yurtning, millatning taqdiri, mustaqilligi masalasidir.

Asarning markaziy qahramonlaridan Otabek va Yusufbek hojilar shu yurtning istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. Otabek dunyo ko'rgan, oq-qorani tanigan, el-yurt g'amida yurgan taraqqiyparvar siymo sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Uning qanchalik mulohazali yigit ekanligini ushbu jumlar orqali bilishimiz mumkin: "Men o'rusning idora ishlarini ko'rib o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lganligini iqror etishga majbur bo'ldim. Bizning idoramiz bugungi tartibsizligi bilan ketabersa, holimizning nima bo'lishiga aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, vatanimga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'rusning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'rusning idora tartibini dasturulamal etishga buyursa, men ham bir oy ichida o'z elimni o'rusniki bilan bir qatorda ko'rsam Ammo, o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylaganlarim, oshiqqanlari shirin bir xayol emish! Bu yerda so'zimni eshituvchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening arzingni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni ma'yus qildilar".

Otabekning dardini, dildan aytgan so'zlarini, armon o'kinchlarini eshitib Ziyo shohichidek vijdonli odam xushyor tortib, iztirob bilan "Bizning bu holga tushishimiz o'z fe'li badimizdan!" desa, Homid pinagini buzmay: "Xudo kofirning bu dunyosini bergan!" deya o'zini, o'zgalarni ovutmoqchi bo'ladi. O'sha majlisda Otabekning so'zlariga nazar soladigan bo'lsak, Otabek Rossiya taraqqiyotining sabablari xususida o'z taxmin-mulohazalarini aytadi: "Menimcha, o'rusning bizdan yuqoriligi uning ittifoqidan bo'lsa kerak, ammo bizning kundan kunga orqaga ketishimizga o'zaro nizoimiz sabab bo'lmoqda deb o'ylayman Oramizda bu qo'rqinch buzg'unchi va nizochi unsurlar tomir yoyib har

zamon soddaxalqni halokat chuqurigaqarab tortadilar. Bu kungi qorachopon vaqi pchoq nizolarini sizga bir timsol o'rnida ko'rsatayin: o'ylab ko'rilsin, bu nizolardan bizga qanchalik foyda va qi pchoq og'aynilarimizga nima manfaat hosil bo'lmoqda?! Faqat bundan foydalanuvchilar ikki xalq orasidagi adovat urug'ini sochib yuruvchi bir necha ig'vogar boshliqlarginadir".

Yozuvchi bunday parokandalikni faqat el-yurtning kundan kunga orqaga ketishiga sabab bo'layotgan omillarini emas, balki yurtni halokatga, o'ylab bo'lmas mislsiz kulfatlarga olib borishi mumkin bo'lgan hodisa sifatida baholaydi.

Asar qahramonlari xalqimizning kuchli va ojiz tomonlari haqida ham teran mulohaza yuritadilar. Romanda alam-iztirob bilan shu narsa qayd etiladiki, Turkiston eli hali xalq sifatida shakillanib ulgurgani yo'q. Xalqda siyosiy ong yetishmaydi. Temur Ko'ragon, Ulug'bek, Bobur kabi buyuk davlat arboblarning vorislari bo'lgan xon-u beklar bobolari an'analarini - yurtni boshqarishdek mashaqqatli va mas'uliyatli vazifani ado etishga layoqatsiz, ularda donishmandlik, tadbirkorlik uquvi yo'q, dono odamlarni yaqiniga yo'latmaydi, ularning haq gapiga, maslahatiga quloq tutmaydi. Sho'rlik sodda xalq o'zaro nizolarga, behuda qon to'kishlarga, adolatsizliklarga ko'nikib ketgan. Eng achinarlisi shuki, xalq tepasiga chiqib olgan mustabid har xil hiyla-nayranglar, targ'ib-tashviqotlar orqali xalq ongini zaharlab, ishontirib, uni gunoh ishlarga safarbar qilishi, aldangan xalq esa o'z navbatida qonxo'r jallodlarni g'amxo'r deb yoki qallob, nodon, noshud-notavon kimsani daho deb ko'klarga ko'tarishi, unga topinishi, uning soxta g'oyalari, qabih maqsadlari yo'lida jonini fido etishi mumkin bunday voqealarga shohid bo'lgan Yusufbek hoji afsus nadomatlar bilan shunday degan endi: "Ana, o'g'lim, bizning xalqning holiga yig'lashni ham bilmaysan, kulishni ham", deydi.

Asarda insonlardagi muomala madaniyati bir-biriga o'zaro hurmat, shirin so'z ulardagi mehri ifodalab turibdi. Boshlariga tashvishli kunlar kelsada, ular bir birlari bilan hotirjam, hurmat orqali munosabatda bo'lishgan. Ayniqsa, Yusufbek hojining, pirovardida o'g'liga aytgan gaplari hayoti davomida to'plagan tajribalaridan chiqadigan bosh xulosasidir, kelgusi avlodlar oldida armoni, ularga qoldirgan achchiq sabog'idir. Mana uning ta'sirli so'zlari: "Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoq neligin bilmagan, yolg'iz o'z manfati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi,.. Biz shu holda ketadigan bir-birimizning tagimizga suv quyadiga bo'lsak, yaqindirki, o'ris istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'ar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelguvi naslimizning bo'yniga o'rus bo'yinturug'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lga tutqin qilib topshirguvchi - biz ko'r va aqlsiz otalarga Xudoning la'nati albatta tushar, o'glim "

Ko'rinib turibdiki, Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'urgan. „O'tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi. „Tariximizning eng kir, qora kunlari" - yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi noahil „xon zamonlari" to'g'risida so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi. Umuman olganda, Abdulla Qodiriyning barcha asarlari o'quvchilarni samimiylik, odamiylik xislatlarini mujassamlashtirishga o'rgatadi. Shuningdek, Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini kuchaytiradi va uni ko'z qorachig'idek asrashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1., „U kim bu nima“ bolalar ensiklopediyasi . „Pedagogika“ .1975-1978
- 2.Abdulla Qodiriy., „O'tkan kunlar“., „Sharq“ nashriyoti. Toshkent-2016
- 3., „O'zbek adabiyoti“ 11-sinf uchun darslik., „O'qituvchi“ nashriyoti-1995
- 4., „XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi“. „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2016

ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR:FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA SOHASIDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA RIVOJLANISH OMILLARI

Maxsudova Madina Latibjon qizi

3-kurs TDSHU, Sharq svilizatsiyasi va tarix fakulteti
germionagrenjer775@gmail.com

***Annostasiya:** Ilm-fan olamning ma'lum bo'lmagan qirralarini ochish borasidagi amaliyotlar jadal sur'atlarda rivojlanib borgani sayin yangi uslub va metodikalar, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, ularni kengaytirish borasidagi talablar ham oshib bormoqda. Pedagogik amaliyotlar borasida ildamlab borayotgan zamonaviy ta'lim tizimi va undagi raqamli texnologiyalarning o'rnini haqidagi ma'lumotlarni puxtalik bilan jamladik.*

***Abstract:** As the practice of discovering unknown aspects of the scientific world develops rapidly, so does the demand for new methods and techniques, as well as the use of modern digital technologies and their expansion. We have carefully summarized the information about the rapidly evolving modern education system and the role of digital technologies in pedagogical practices.*

***Kalit so'zlar:** Pedagogika, Xan Akademiyasi, ta'lim tizimi, digitallashtirish,*

Hozirgi kunda ta'lim har bir yosh avlodning hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar har qanday kasb va faoliyatning asosida ta'lim tizimi va uning nechog'lik tashkil etilgani turadi. Sababi aynan ta'lim jarayonida yoshlar kelajak va undagi dunyolariga tayyorlanadilar. Rivojlangan texnika va texnologiyalar asrida yashayotganligimizni inobatga olsak, raqamli texnologiya yosh avlodning ikkinchi tabiati-dunyosiga aylanib ulgurdi deb ayta olamiz. Endi ta'limni shunchaki odatiy ma'ruzalar yoxud birgina kitob o'qish bilan cheklanmagan holatda zamonaviy uslublardan texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'zlashtirish birmuncha osonroq bo'lib qoldi.

Fikrimizning yaqqol dalili sifatida ED TECHNOLOGY sayti ma'lumotlarini keltiramiz. Unga ko'ra bugungi kunda o'qituvchilarning 56 foizi o'quv jarayonlari davomida raqamli texnologiyalardan foydalanilganda ta'lim jarayonining sezilarli darajada samarali bo'lganligini ta'kidlashgan. Bundan tashqari 49 foiz pedagoglar texnologiyalar yordamida dars o'tishni birmuncha osonlashtirishini, 53 foizi esa bu uslubdan foydalanish dars jarayonida sinfning jonli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaganligini aytadilar.

Darhaqiqat, raqamlashtirish natijasida ta'lim va uning samaradorligida ro'y bergan yirik ijobiy o'zgarishlarni ta'kidlash uchun uzoqdan boshlash shart emas. Birgina o'tgan 20 yilni tadqiq qilishning o'zi yetarli. Bundan bir necha yillar oldin dars jarayonlarida qog'ozli tarqatma materiallar va savol-javob shakllari orqaligina fanni o'zlashtirish kifoya qilgan. Misol tariqasida tarix fanidagi biror voqeani bilish uchun kitobda mavjud ma'lumot bilan cheklanilgan. Bu esa o'quvchiga o'z navbatida yetarlicha tasavvurga ega bo'lish imkonini bermagan. Bugungi davr odamlari uchun esa tarixiy voqea va uning zamonaviy texnikalar yordamida yasalgan maketini tomosha qilish yoki bu sohada o'zini sinab ko'rish hech qanday muammo tug'dirmaydi.

Zamonaviy texnikaning eng foydali tarafi bu uning mehnat samaradorligini oshirishida. Dars uchun berilgan ma'lum bir soatlar barcha o'quvchilar o'zlashtirishini sinash, ularni xato kamchiliklari ustida ishlash va qo'shimcha tushunchalar berish uchun yetarli emas. Raqamlashtirish esa ana shunday qulay imkomiyatni taqdim etadi. Hozirda ishlab chiqilgan maxsus platformalar orqali o'quvchilar qo'shimcha vazifalarni o'qituvchiga yetkazishi barcha qo'llanmalarni osonlikcha topishi va undan foydalanishi, qoldirilgan

darslarni online tarzda tomosha qilishi ham mumkin.

Zamonaviy texnologiyaning qudratini aniqlash uchun COVID-19 virusi tarqalgan davr oralig`ida joriy etilgan karantin tizimi va ta`limning an`anaviy tizimdan online shaklga o`tkazilishi yaqqol dalil bo`ldi. Ta`limga innovatsion yondashilgan holda yangicha tizim va platformaning yo`lga qo`yilganligi (Misol uchun ZOOM, HEMIS tizimi) shular jumlasidandir. Bu o`quvchilarga uydan chiqmagan holda xavfsiz ta`lim olish, fan va sohani o`z vaqtida o`zlashtirish imkonini yaratib berdi.

Bir necha yillar oldin komputer texnologiyalari haqida qisman ma`lumotga ega bo`lgan yoshlar ushbu tezkor rivojlantirish asrida DELPHI, JAVA, C++, PHYTON singari eng yuqori saviyali dasturlash tillarida faoliyat yuritmoqdalar. Shu bilan birga endilikda yoshlar bu bilimlardan unumli foydalangan holda zamonaviy IT sohasida ham muvaffaqiyatli qadamlar tashlash imkoniyatini qo`ldan boy bermayaptilar. Yangi dasturlar, ta`limning zaif va eskirgan uslublari yangilanib, yangi, zamonaviy, innovatsion, dolzarb manbalarga tayanadigan tizimlari ishlab chiqilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-ta-limni-tashkil-etishda-raqamli-texnologiyalarning-ahamiyati>
2. <https://www.allisonacademy.com/students/education/technology-in-education/technology-used-in-education-today/>
3. <https://www.teachthought.com/technology/technology-use/>
4. <https://soeonline.american.edu/blog/technology-in-education>
5. <https://www.classcraft.com/blog/examples-of-educational-technology/>

АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИШ

Некбоев Муҳиддин Эркин ўғли

Бухоро давлат университети
Физика-математика факультети талабаси
mneqboyev99@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада таълим сифатини оширишда ахборот-коммуникация технологияларининг ўрни, бир қатор қулайликлари тўғрисида фикр юритилган бўлиб, айниқса, математика ва геометрия дарсларини ўқитилишида мултимедияли методдан фойдаланиш имкониятлари ва тадбиқи келтирилган.

Калит сўзлар: Таълим, технология, ахборот-коммуникация технологиялари, мултимедиа воситалари, электрон кўргазмалар қурол.

Таълим сифатини ошириш - бу бугунги кунда бутун жаҳон ҳамжамиятидаги энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Уни ҳал этиш учун эса, таълим мазмунини модернизациялаш, таълим жараёни технологияларини ва сўзсиз таълимнинг якуний мақсадини қайта кўриб чиқиш талаб этилади. Таълимни жамият маданиятини ўзлаштириш асосида таълим олувчиларда фаолиятнинг турли соҳаларида шахсий ва ижтимоий аҳамиятга эга бўлган муаммоларни мустақил ҳал этиш қобилиятини ривожлантиришнинг махсус ташкил этилган жараёни сифатида қараш мумкин. Таълим мақсадини бундай тушуниш эса, ўз навбатида компетентли ёндошувни рўёбга чиқариш учун асос яратади.

Ахборот-коммуникация технологияларидан доимий равишда фойдаланиш ўқувчиларнинг фанга қизиқишини ошириб бориши билан биргаликда эса сақлаш қобилиятини, хотираси ҳамда нутқини ривожлантиришга кўмаклашади.

Математика фани ўз салмоғига кўра ўқувчидан ҳам берилган масалага қуйилган муаммони тушуни, эслаб қолишни, ҳам мантиқий фикрлашни талаб қилади. Математика фанини ўқитишда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш бир қатор қулайликларга эга:

- Вақтни тежаш имконини беради.
- Дарсни қизиқарли ўтишини таъминлайди.
- Дарс давомида кўргазмаликка эришилади.
- Педагогнинг дарс жараёнигача бўлган тайёргарлигида ва ҳатто дарс жараёнида ҳам кўпгина маълумотларга эга бўлишга имкон яратади.
- Ўрганилган билимларни мустақамлашга, уларни амалиётда қўллаш олиш кўникмасини ва малакасини шакллантиришга кўмаклашади.
- Назорат - синов дарслари ҳамда амалий дарсларни ташкиллаштиришда қулайликлар беради.
- Ўқувчиларнинг фарз қилиш қобилиятини ривожлантиради.

Ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш, айниқса, математиканинг бир бўлими ҳисобланмиш геометрия фанининг ўзлаштирилишида ўқитувчи учун ҳам, ўқувчи учун ҳам яқин кўмакчи бўла олади. Чунки геометрик масалаларни ечишда масаланинг тўғри жавобига эришиш учун унинг тўғри тушунилиши ва мазмунига кўра чизилган тўғри чизмаси муҳим асос бўлиб хизмат қилади. Агар ўқувчига масаланинг шартига мос чизмани тасаввур қила олиши учун (масалан: шарга ички чизилган пирамиданинг кесими) мултимедиа воситаларидан фойдаланилса, унинг нима ҳақида бораётгани ҳаракатдаги чизмалар

асосида намойиш қилинса, ўқувчига масала шартини тушуниб олишига янада кўмаклашилади.

Мултимедияли ишланмалар асосида ўтказиладиган маъруза машғулотининг сценарийси. Гуруҳда даволат олиниб, машғулот мавзуси ва мақсади ҳамда машғулот давомида қўлланиладиган технологиялар юзасидан қисқача маълумотлар берилади. Янги мавзу тушунчаларини киритиш учун керакли ўрганилган математик тушунча ва тасдиқларни такрорлаш, тартиблаш ва қўйилган мақсадга қаратиш учун электрон кўргазмали қурол кўринишида тайёрланган саволлар ва тез ҳал этиладиган топшириқлар экранда намойиш этилади. Ўқитувчи ўқувчиларнинг жавобларини баҳолаб боради ва бу савол-жавобда барча ўқувчиларнинг фаол иштирок этишига эътиборни қаратади.

Янги мавзуга ўтишда ўқувчиларга тўплам, улар устида бажариладиган амаллар қанчалик мактаб математикасидан танишлигини аниқлаш ва уларнинг билимини олий таълим талаблари асосида тўлдириш ва чуқурлаштириш мақсадида ўқувчиларга мақсадга қаратилган саволлар бериб бориш ва уларнинг жавобларини тўлдириш (кластер тузишни топшириш мумкин), тартиблаш орқали янги тушунчалар киритилади. Ўқувчиларга Эйлер-Венн диаграммалари ҳақида электрон кўргазмали қурол ёрдамида маълумот берилади ва бир қанча мисоллар биргаликда ҳал этилади. Дарс давомида тўпламлар устида бажариладиган амаллар, Эйлер-Венн диаграммалари мултимедиа имкониятларидан фойдаланиб Power Поинт дастури орқали тайёрланган электрон кўргазмали қуроллар ёрдамида намойиш этиб борилади.

Ўқувчиларнинг маъруза давомида олган билимларини тартиблаш, мустаҳкамлаш мақсадида экран орқали ҳар бир ўқувчига алоҳида тузилган топшириқлар берилади. Ўқувчилар 10 дақиқа давомида топшириқларни бажарадилар ҳамда ёнидаги шеригига текшириш учун берадилар. Ўқитувчи дафтарларни йиғиб олган вақтда топшириқларни текшириб ҳар бир ўқувчини баҳолайди. Дарс якунида экранда ўқувчиларга кейинги машғулот мавзусига тайёргарлик кўриш учун саволлар ва уй вазифалари сифатида топшириқлар берилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. А.Ахмедова Matematika fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish "Science and Education" Scientific Journal October 2020 / Volume 1 Issue 7.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki>

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA ELEMENTAR МАТЕМАТИК TASAVURNI SHAKLLANTIRISH

Najmiddinova Gulira'no Muhammadamin qizi

Namangan Davlat Universiteti
Ta'lim tarbiya nazaryasi va metodikasi
maktabgacha ta'lim 1-kurs magistranti
gulira'no@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlanishi bugungi pedagogik jarayonlar haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Elementar matematika, pedagog. Tasavvur, geometrik va kattaliklar, maktabgacha yoshdagi bolalar, fikrlash, oylash, rivojlantirish.

Zamonaviy hayotimizda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri bo'lib, rivojlanib borayotgan ona O'zbekistonimiz bugungi jaji bolajonlarimiz qo'idadir. Shunday ekan ularni bolalikdan aqliy rivojlantirish bu elementar matematika tasavurini rivojlantirish barcha pedagoglarni oldiga qo'ygan eng buyuk maqsadlaridan biri bo'lmog'I kerak. Maktabgacha ta'lim sharoitlarida bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonining asosiy qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Bular:

- maktabgacha yoshning turli davrlarda bolalarda miqdor, makon, vaqt, geometrik va kattaliklarga oid tasavvurlar rivoji darajasiga dasturiy talablarni ilmiy asoslash;

- maktabgacha yoshdagi bolalar uchun matematik materialning faktik mazmunini belgilash;

- zamonaviy ilmiy ma'lumotlar asosida elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha material mazmunini takomillashtirish;

- samarador didaktik materiallar, vositalar, metodlar va matematik rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning xilma-xil shakllarini ishlab chiqish va maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etish;

- maktabgacha ta'lim muassasasi va boshlang'ich maktabda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha dastur materiallari izchilligi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik rivojlantirishni amalga oshirishga qodir mutaxassislar tayyorlash mazmunini ishlab chiqish;

- oilaviy tarbiya sharoitlarida bolalarni matematik rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish nazariyasi va metodikasining yuzaga kelishi, maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish sistemasini ishlab chiqish bosqichini ajratadi. XX asr oxiri va uchinchi ming yillik boshida shakllana boshladi va bu bosqich uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni dunyoning yaxlit kartinasi asosida shakllantirishga kompleks yondashuv bilan tavsiflanadi. Demak, metodika rivojlanishidagi birinchi - empirik bosqich, matematik rivojlanish g'oyasini ilgari surish va asoslash bosqichidir. Bolani hali maktabgacha davrda 20 gacha sanash, katta-kichik, juft-toq sonlarni farqlash, predmetlarni kattaligiga ko'ra qiyoslash, ayrim geometrik shakllarni tanish va atash, amaliy faoliyatda o'lchov birliklarini

- o'rgatishni tavsiya qiladi. Bolalarni maktabgacha sanashga o'rgatish zarurligiga bir necha bor e'tibor qararish lozim. Buyuk pedagog bolalarni alohida predmetlar va ularning guruhlarini sanash, qo'shish va ayirish amallariga o'rgatish, hisob birligi

- sifatida o'nlik haqida tushuncha shakllantirishga chaqirgan. Arifmetik masalalarni yechishga o'rgatishning amaliy yo'nalganligini ajratish va bolalarni "bir", "ko'p", "bir necha",

"juft", "ko'proq", "kamroq", "o'shancha", "teng", "xuddi shunaqa" kabi tushunchalar bilan tanishtirish zarur. Asosan 1 dan 10 gacha sonlami o'rganish vazifa bo'lib, har biri alohida qarab chiqiladi. Ayni paytda bolalar shu sonlar bilan amallarni o'zlashtirishi lozim. Suhbat va mashg'ulotlar davomida maktabgacha yoshdagi bolalar shakl, makon va vaqt, butunni qismlarga bo'lish, kattaliklar va o'lchash haqida bilim oladilar. Amaliy faoliyatda mashqlar yordamida bilvosita matematikagacha eng avvalo, bu faoliyatning yuqori algoritmlanishi hisobiga o'z xususiyatlariga ega. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish predmetlar xossalari va ular o'rtasidagi munosabatlarni bilishdan boshlanadi: o'xshashlik va farqlash aniqlanadi. Xossalari obyektivligi va nisbiyligi aniqlashtiriladi, predmetlarning xilma-xilligi va o'zaro ta'siri aniqlanadi. Matematik tasavvurlarni shakllantirishning dastlabki bosqichida xossalar turlari oydinlashtiriladi, ular tasniflanadi, kattalikka, umumiy xossa sifatida, og'irlikka, shaklga tavsif beriladi, predmetlar xossalarini o'zlashtirishning asosi sifatida hissiy tajribaning rivojlanishiga e'tibor qaratiladi, predmetlarni xossalariga ko'ra guruhlari, identifikatsiya (o'xshatish) amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha barcha ish sonlargacha tasavvurlarni mustahkam o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, ular predmetlar ko'pligi bilan turli amaliy harakatlar natijasida hosil bo'ladi, natijada, bolalar qiyoslash, nisbatlash, xulosa qilishga o'rganadi, ya'ni fikrlash operatsiyalarini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida matematik rivojlanishga jiddiy o'rin beriladi. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlari rivojlanishi deganda, elementar matematik tushunchalarning shakllanishi va ular bilan bog'liq mantiqiy operatsiyalar natijasida shaxsning bilish faoliyatida ro'y beradigan siljish va o'zgarishlarni tushunish lozim". Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlanishi deganda elementar matematik tasavvurlar va ular bilan bog'liq mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish natijasida ularning bilish faolligi shakllaridagi sifat o'zgarishlari tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishi kundalik hayotda (avvalo, kattalar, tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat, muloqotda) beixtiyor kelgani kabi, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan o'qitish yo'li bilan ham amalga oshadi. Pedagogik amaliyot dalolat beradiki, normal rivojlanayotgan bolalar maktabgacha davr oxiriga kelib konkret fikrlashdan mavhum, tushunchaviy fikrlashga o'tadi. Ularda ilmiy tushunchalar asoslarini egallash uchun zarur fikrlash operatsiyalari shakllanadi. Shu bilan birga maktabgacha yoshdagilar fikrlash jarayonlarini sifat jihatidan qayta qurishga faqat o'qitishni alohida usulda tashkil qilish hisobiga erishishi mumkin, bunday o'qitish jarayonida bolalarda atrof olamni aniqroq va to'laroq idrok etish qobiliyati, predmet va hodisalar xossalarini ajratish, ularning aloqalarini ochish, xossalarni sezish, kuzatilayotganlarni interpretatsiyalash qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda faollik va mustaqilli, bolalarga beriladigan ishon va motivatsiya bugungi kun bolalarni aqlan, teran fikrlashga chorlaydi. Shunday ekan biz yoshlar o'z kasbimizni chin dildan sevishimiz va bolalarni dunyo qarashiga qarab doimi yangiliklar olami bilan tanishtirishimiz kerak. Buning uchun pedagoglarni o'zidan ulkan mehnat va zamon bilan ham nafas ishlashni talab qilidi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi M.P Xamidova , M.Y Ayupova Toshkent -2009
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish N.N. Djamilova Toshkent -2018
3. www.ziyonet

Innovative ways to manage telecommunications combs

Nazarova Mushtariy Bahrom qizi

2nd year master student of Tashkent University of Information
Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract: *The management of wireless telecommunication networks today uses a combination of the telecommunication networks today uses a combination of the Telecommunication Management Network (TMN) and OSI standards. The OSI model is well accepted in managing most IP-based network elements. The TMN model provides the basic set of principles for a layered architecture and the management functional areas. The OSI model provides the management framework for the managing system and the management system. this article briefly discusses the working principle of the OSI model.*

Keywords: *Telecommunication Management Network, OSI, Network Management, Element Management, Service Management, Business Management, CPU,*

As the telecommunication network is a complex infrastructure spanning over networks, services, users, and business entities. The OSI model does not provide a top-down view of telecommunication network management. The Telecommunication Management Network (TMN) framework defines a layered logical architecture consisting of element management, network management, service management and business management. Figure 1 presents a combined model of telecommunication network management according to the TMN and OSI models. The TMN layered architecture is designed in the same spirit as the layered network model. Each layer above builds on the functions of the layer below and is considered an abstraction of the lower layer. Furthermore, the layers from network management up are considered vendor-independent.

TMN defines a layered architecture, which comprises four basic layers:

- Element Management Layer This layer deals with the management of the functions of a network element. Examples of these functions are detection of equipment errors, environmental conditions such as power consumption and temperature, resource measurement such as CPU, disk, and message queue utilization, and software upgrades.
- Network Management Layer This layer focuses on the interaction of the network elements and the topology of the network. Examples of the role of this layer are to configure the network topology establish routing and signaling paths, and aggregating fault and measurement conditions across the network
- Service Management Layer This layer is concerned with the aspects of the network that can be experienced by the users of the network. Examples of these network aspects are the Quality of Service (QoS)/Quality of Experience (QoE), accounting, user management, and so forth.
- Business Management Layer This layer focuses on the overall strategic management growth and evolution of the network.




Figure 1: Telecommunication Network Management Model

As per discussion in Section 2, TMN is a layered architecture consisting of business, service, network and element layers. Management entities at each layer serves as the manager for the layer immediate below and as agents to the layer immediately above. The TMN information model used for defining managed objects provides the Guidelines for the Definition of Managed Objects (GDMO) specified in the ITU-T X.722 specification. Although GDMO uses ASN.1 for the definition of syntax and encoding of attributes, it is not derived from the ASN.1 as in the case of SNMP MIB. Compared with SNMP MIB, GDMO follows a stronger object-oriented approach that is far more complex and expressive. In particular, GDMO specifies managed objects as classes of objects, have provision for defining behaviors, attributes, and class inheritance. A GDMO managed object can contain attributes, attribute groups, actions, notifications, and behaviors. The attribute and attribute groups are used to specify resource attributes and could be associated a match property that defines how a filtered CMIP request could operate on the variable to determine whether it matches. Examples of such properties include equality, ordering, substrings, etc. The actions are used to define what types of management actions can be carried out on the GDMO object and the notifications are used to define the types of notifications it can send to the manager. The behaviors are used to provide textual descriptions about the behaviors of the managed entity the object represents.

The managing systems operate within the network management layer, and the managed systems are a part of the element management layer. The functional areas that are required to be supported by this framework are the following. These are also referred to as the FCAPS.

The OSI Common Management Information Protocol (CMIP) is used as the communication protocol in TMN. Similar to SNMP, CMIP is an application level

protocol; unlike SNMP, CMIP is anything but simple. It uses two other application level protocols: Association Control Service Element (ACSE) and Remote Operation Service Element (ROSE). ACSE is used to establish and release associations between application entities. For CMIP to operate, the two entities must first associate with each other through ACSE. ROSE is the ISO equivalent of remote procedure call. CMIP uses this transaction-oriented service for all of its requests and responses and to invoke management actions remotely. ROSE also provides error report facilities. The Common Management Information Service Element (CMISE) defines the set of management operations CMIP could be used to perform. These operations could be broadly categorized into three groups. The first group is management association service that uses ACSE to associate and release two entities engaged in management communication, M-initialize, M-terminate, and M-abort operations are allowed where M-abort is used to terminate communications abruptly. The second group is management operation services, including M-get, M-set, M-action, M-create and M-delete. The M-get and M-set operations are used to retrieve and update managed objects. The M-action is used to perform remote operations. The M-create and M-delete operations are useful in creating and deleting an instance of a managed object. As TMN is the prominent management architecture for telecommunication management, GDMO and CMIP were quite popular among the telecommunication community.

References:

1. How many networks in a local cluster? Textile machine production and innovation in Brescia D. Fornahl, T. Brenner (Eds.), Cooperation, Networks, and Institutions in Regional Innovation Systems, Edward Elgar, Cheltenham, UK (2003), pp.
2. Lakshmi G. Raman March 1999, Fundamentals of Telecommunications Network Management WileyIEEE Press ISBN: 978-0-7803-3466-3
3. J. Kirk Shrewsbury March 1995, an Introduction to TMN Journal of Network and Systems Management, vol. 3, No. 1. DOI=<http://www.cs.stevens.edu/~sghosh/courses/cs669/old-classnotes/Tmn-intr.pdf>
4. <https://www.accessengineeringlibrary.com>
5. www.research.gate

ВЛИЯНИЕ ЭКСПОРТА АВТОМОБИЛЕЙ НА РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.

Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи

Магистрант группы МЕКП-21

Ташкентского государственного экономического университета.

***Аннотация:** В период активных реформ в 2016-2021 гг. в автомобильном секторе были достигнуты значительные результаты. В частности, объем производства автомобилей увеличился в 3 раза до 280 тыс.; устранены очереди на покупку авто; в отрасли внедрена "вакцина честности" и устранена укоровившаяся коррупция; для усиления конкуренции в Джизакской области начато производство немецких автомобилей Volkswagen.*

***Ключевые слова:** сумма, производство, промышленность, экономика*

Производство

Без преувеличения можно сказать, что влияние пандемии на автомобильную промышленность Узбекистана было относительно умеренным. В 2020 году предприятиями автомобильной отрасли произведено автомобилей, прицепов и полуприцепов на сумму 33 718,9 млрд сумов, а в 2016 году на 4 112,3 млрд сумов, таким образом объем производства в номинальном выражении вырос в 8 раз.

В то же время, в 2016 году на автомобильную промышленность приходилось 3,7% от общего объема промышленности, а в 2020 году этот показатель составил 9,2%, что, в свою очередь, указывает на то, что доля автомобильной промышленности в общей отрасли выросла на 5,5 процентных пункта в период с 2016 по 2020 год.

В частности, в 2020 году произведено 280 080 легковых автомобилей (темп роста + 217,7%), 642 автобуса (темп роста -29,3%), 4163 грузовика (темп роста + 30,1%), 673 трактора (темп роста -6,5%), 41 транспортные средства специального назначения были произведены.

Сегодня Узбекистан единственная страна в Центральной Азии, которая производит полный спектр легковых и коммерческих автомобилей. В настоящее время более 85 предприятий в стране работают в автомобильной промышленности и сотрудничают с более чем 200 зарубежными компаниями и организациями в этой сфере. Сегодня в отрасли работает свыше 28 000 человек.

Внешняя торговля

Динамика внешней торговли в автомобилестроении в 2016-2020 годах развивалась быстрыми темпами. Изменения в машиностроении в Узбекистане отражены в растущем спросе на автомобили отечественного производства на мировых рынках.

В 2016-2020 годах экспорт "Узавтосаноат" составил 639,5 миллиона долларов. Согласно статистическому анализу, в 2016 году экспорт составил 55,1 миллиона долларов, тогда как в прошлом году этот показатель увеличился до 208,9 миллиона долларов, увеличившись в 4,1 раза.

В частности, в прошлом году экспортировано легковых автомобилей на 170,7 миллиона долларов (18 552 единицы), автобусов на 14,4 миллиона долларов (217 единиц) и грузовиков на 11,9 миллиона долларов (780 единиц). В 2020 году было экспортировано автотранспортных средств на 168,6 миллиона долларов в Казахстан, 7,2 миллиона долларов в Азербайджан, 5,7 миллиона долларов в Афганистан, 4,9 миллиона долларов в Кыргызстан и 3,6 миллиона долларов в Российскую

Федерацию.

Если принять во внимание объем иностранного импорта в автомобильной промышленности, то в 2020 году было импортировано автомобилей на общую сумму 1838,3 миллиона долларов, что, в свою очередь, увеличилось в 2,1 раза по сравнению с 2016 годом и подтверждает снижение на 13 процентов по сравнению с 2019 годом.

В частности, к 2020 году было импортировано легковых автомобилей на 475,1 миллиона долларов (25 766 единиц), грузовиков на 190,4 миллиона долларов (4576 единиц) и автобусов на 16,7 миллиона долларов (445 единиц).

За этот период в основном импорт из Южной Кореи составил 861,6 миллиона долларов, из Китая - 320,6 миллиона долларов, из Японии - 100,8 миллиона долларов, из Российской Федерации - 93,9 миллиона долларов, из Беларуси - 52,5 миллиона долларов.

Инвестиции

В результате принятых мер по созданию конкурентной среды в автомобильной промышленности и созданию благоприятного инвестиционного климата за последние пять лет в автомобильной отрасли был реализован ряд крупных инвестиционных проектов.

В частности, с 2016 по 2021 год "Узавтосаноат" инвестирует в общей сложности 392,3 млн сумов. Реализованы инвестиционные проекты на сумму:

- в 2016 году 120,6 млн долларов;
- в 2017 году 65,1 млн долларов;
- в 2018 году 21,8 млн долларов;
- в 2019 году 70,2 млн долларов;
- в 2020 году 114,6 млн долларов.

Реформы в сфере

За последние 5 лет в автомобильном секторе проведены значительные реформы. В частности, были достигнуты следующие результаты:

- Объем производства автомобилей увеличился в 3 раза до 280 000;
- Устранены длинные очереди на покупку авто;
